

INGLIZ DRAMATURGIYASIDA IJTIMOYIY NOROZILIKNING BADIY TALQINI

Xakimova Maksadxon

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20603966>

Annotatsiya: Maqolada Jon Osborn dramaturgiyasi misolida urushdan keyingi ingliz jamiyatidagi ijtimoiy ziddiyatlar va yosh avlod ruhiyati tahlil qilindi. “Look Back in Anger” pyesasi asosida yangi qahramon tipi va badiiy ifoda xususiyatlari ochib berildi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy norozilik, dramaturgiya, sinfiy tafovut, badiiy talqin, avlod ruhiyati

Abstract: The article analyzed social contradictions of post-war English society and the mindset of the younger generation through the example of John Osborne’s dramaturgy. Based on the play “Look Back in Anger,” the features of a new type of character and artistic expression were revealed.

Keywords: social discontent, dramaturgy, class inequality, artistic interpretation, generational mindset

Аннотация: В статье на примере драматургии Джона Осборна был проведён анализ социальных противоречий послевоенного английского общества и духовного состояния молодого поколения. На основе пьесы «Look Back in Anger» были раскрыты особенности нового типа героя и художественного выражения.

Ключевые слова: социальное недовольство, драматургия, классовое неравенство, художественная интерпретация, психология поколения.

XX asr ikkinchi yarmi ingliz dramaturgiyasida yuz bergan g‘oyaviy-estetik o‘zgarishlarni tahlil qilishda Jon Osborn (John Osborne) ijodini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘tgan asrning 50-yillarda shakllangan “The Angry Young Men” (“G‘azablangan yigitlar”) adabiy harakati doirasida faoliyat yuritgan Osborn dramaturgiyasi urushdan keyingi davr britan jamiyatidagi ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur harakat vakillari an’anaviy ingliz teatrida hukmron bo‘lgan aristokratik estetikadan chekinib, jamiyatning oddiy qatlamlari hayotini, ularning ruhiy kechinmalari va norozilik kayfiyatlarini sahnaga olib chiqdi. Shu jihatdan Osborn ijodi soha mutaxassislaridan tomonidan nafaqat dramaturgik yangilanish, balki urushdan keyingi ijtimoiy ongda o‘zgarishlarning badiiy aks-sadosi sifatida talqin qilinadi. Adib pyesalarida markaziy o‘rin egallagan qahramonlar jamiyatning quyi yoki o‘rta qatlamlariga mansub bo‘lib, ular orqali mavjud ijtimoiy tizimga nisbatan tanqidiy munosabat ifodalanadi. Natijada Osborn dramaturgiyasi ingliz teatrida yangi ijtimoiy qahramon tipini shakllantirgan muhim adabiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davr butun dunyoda bo‘lgani kabi ingliz jamiyatida ham keskin iqtisodiy qiyinchiliklar, shu bilan birga sinfiy tabaqalanishning saqlanib qolishi hamda an’anaviy qadriyatlar tizimining izdan chiqishi bilan xarakterlangan murakkab tarixiy bosqich bo‘ldi. Mazkur ijtimoiy muhit yosh avlod dunyoqarashida chuqur ruhiy ziddiyatlarni yuzaga keltirdi. Adabiyot va san’at sohasida bu jarayon mavjud ijtimoiy tartibotga nisbatan tanqidiy munosabatning kuchayishi bilan namoyon bo‘ldi. Osborn dramaturgiyasini aynan shu tarixiy kontekstda talqin qilish ayniqsa muhimdir, chunki uning asarlarida individual ruhiy kechinmalar ortida butun bir avlodning ijtimoiy kayfiyati mujassam holda ifodalanadi. Teatr san’ati bu jarayonda muallif uchun jamiyatdagi ziddiyatlarni ochiq ifodalash imkonini beruvchi muhim

badiiy platformaga aylandi va dramaturgiyaning sahnaviy tabiati ijtimoiy tanqidni tomoshabinga bevosita yetkazish imkonini yaratdi. Osborn dramaturgiyasining eng yorqin namunasi sifatida e'tirof etilgan “Look Back in Anger” (“G‘azab bilan ortga nazar”) pyesasi ingliz teatrida yangi ijtimoiy-estetik yo‘nalishning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Asarning markaziy qahramoni Jimmy Porter obrazi orqali muallif urushdan keyingi britan jamiyatida paydo bo‘lgan norozilik kayfiyatini sahnaga olib chiqdi. Qahramon jamiyatdagi ma‘naviy inqirozni ta‘riflar ekan, “There aren’t any good, brave causes left” (“Endi kurashishga arziydigan buyuk va mardona maqsadlar qolmadi.”) deydi.¹ Ushbu fikr pyesaning g‘oyaviy markazini tashkil etadi. Qahramonning noroziligi shaxsiy hissiyot sifatida emas, balki urushdan keyingi avlodning ma‘naviy iztiroblari va ideallar inqirozining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan Jimmy Porter obrazi dramaturgiyada yangi ijtimoiy qahramon tipini – romantik ideal personaj emas, balki mavjud ijtimoiy tizimdan norozi bo‘lgan real inson obrazini shakllantiradi.

Mazkur g‘oyaviy asos pyesaning ichki obrazlar tizimida yanada chuqurlashib, ijtimoiy ziddiyatlarning ko‘p qirrali badiiy talqinini yuzaga keltiradi. Jimmy Porter obrazi markaziy figurani tashkil etgan holda, uning atrofidagi personajlar bilan munosabatlari orqali asardagi konflikt yanada murakkablashadi va ijtimoiy mazmun kengayadi. Xususan, Alison obrazi Jimmyga nisbatan mutlaqo boshqa ijtimoiy-madaniy qatlam vakili sifatida tasvirlanib, ular o‘rtasidagi munosabat sinfiy tafovutning intim, oilaviy makonga ko‘chgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Alisonning sukutga moyilligi va passiv pozitsiyasi bir qarashda shaxsiy xarakter xususiyati bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida u an‘anaviy aristokratik muhitning ichki yopiq va konservativ tabiatini ifodalaydi. Kliff obrazi esa ushbu keskin qarama-qarshilik fonida muvozanatni saqlashga urinuvchi vositachi sifatida namoyon bo‘ladi, biroq uning mavjudligi konfliktni bartaraf etmaydi, aksincha, ijtimoiy ziddiyatlarning yechimsizligini yanada ochib beradi. Helena obrazi orqali esa muallif ijtimoiy axloq va tashqi tartib tarafdori bo‘lgan qarashlarni sahnaga olib chiqadi, bu esa Jimmy bilan ideologik qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Shu tariqa pyesadagi har bir obraz individual xarakter doirasidan chiqib, muayyan ijtimoiy qatlam yoki dunyoqarashning ramziy ifodasiga aylanadi. Natijada “Look Back in Anger” pyesasidagi dramatik tizim shaxslararo munosabatlar tasviri bilangina cheklanmay, balki turli ijtimoiy kuchlar va qarashlar o‘rtasidagi murakkab to‘qnashuvni badiiy jihatdan umumlashtiradi.

Osborn dramaturgiyasining muhim xususiyatlaridan biri, aynan, muallifning ijtimoiy tanqidga asoslangan badiiy konsepsiyasidir. Muallif o‘z pyesalarida jamiyatdagi sinfiy tafovut, konservativ madaniy muhit hamda ijtimoiy imkoniyatlarning noteng taqsimlanishini keskin tanqid qiladi. Bunday tanqidiy ruh “The Angry Young Men” harakatining umumiy estetik konsepsiyasiga hamohang tarzda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, Osborn dramaturgiyasi urushdan keyingi avlodning ruhiy kayfiyatini ifodalaydi, jumladan, adabiy tanqidchi Kenet Alsopning so‘zlariga ko‘ra, “Osbornning pyesasi Britaniya ijtimoiy-siyosiy elitasi tomonidan e‘tiborsiz qoldirilganini his qilgan avlodning ovozig aylanadi” (“Osborne’s play gave a voice to a generation that felt ignored by the British establishment”²). Ushbu mulohaza dramaturg asarlarining ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi, chunki uning pyesalarida tasvirlangan norozilik individual xarakterga ega bo‘lish bilan birga butun bir avlodning ijtimoiy kayfiyatini ifodalaydi.

Osborn yaratgan qahramonlar psixologik jihatdan murakkab xarakterga ega bo‘lib, ular orqali shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar chuqur tahlil qilinadi. Jimmy Porter obrazi ham

¹ John Osborne. *Look Back in Anger*. London. Faber and Faber. – 1957. P. 84.

² Kenneth Allsop. *The Angry Decade: A Survey of the Cultural Revolt of the 1950s*. London. Peter Owen Publishers. – 1958. P. 112.

aynan shunday dramatik konflikt markazida turadi. U jamiyatdagi adolatsizlikni keskin tanqid qilsa-da, shu bilan birga o'zining ichki ruhiy iztiroblari bilan ham kurashadi. Shu sababli uning g'azabi shunchaki individual hissiyot sifatida emas, balki muayyan tarixiy davrning ijtimoiy kayfiyatini ifodalovchi ramziy obraz sifatida talqin qilinadi. Adabiyotshunoslar Ronald Karter va Jon MakRe bu holatni quyidagicha izohlaydi: “Jimmyning g'azabi shaxsiy kechinmagina emas, balki butun bir avlodning jamiyatga nisbatan norozilik kayfiyatining ifodasidir” (“Jimmy’s anger was not simply personal; it was the anger of a whole generation”³). Mazkur fikr Osborn dramaturgiyasining g'oyaviy mohiyatini yanada aniqroq ochib beradi.

Osborn ijodining yana bir muhim jihati uning dramaturgik uslubida namoyon bo'ladi. Muallif ingliz teatrida ilgari keng qo'llanilmagan kundalik nutq elementlarini sahnaga olib kirib, dramatik dialogni hayotiylik bilan boyitdi. Natijada qahramonlar nutqi sun'iy patetika va balandparvozlardan xoli bo'lib, oddiy insonlarning real hayotiy muloqotini aks ettira boshladi. Bunday uslubiy yangilik dramaturgiyada realizmning yangi bosqichini shakllantirdi. Shu bilan birga Osborn dramatik konfliktni tashqi voqealardan ko'ra qahramonlarning ichki ruhiy ziddiyatlari orqali ochishga intildi va natijada uning pyesalari ijtimoiy dramadan tashqari psixologik drama xususiyatlarini ham o'zida mujassam etdi.

Jon Osborn dramaturgiyasining ta'siri keyingi davr ingliz teatrida ham sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Uning asarlari dramaturgiyada yangi badiiy yo'nalishlarning shakllanishiga turtki berdi. Ayniqsa, ijtimoiy realizm, tanqidiy ruh va psixologik tahlilning uyg'unligi keyingi avlod dramaturglarining ijodida ham davom etdi. Shu sababli adabiyotshunoslar Osborn ijodini XX asr ingliz dramaturgiyasining muhim burilish nuqtalaridan biri sifatida baholaydilar.

Xulosa qilib aytganda, Jon Osborn dramaturgiyasi urushdan keyingi Britaniya jamiyatidagi ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqinini yaratgan muhim adabiy hodisa hisoblanadi. Uning asarlarida oddiy insonlarning hayoti, ularning jamiyatga nisbatan tanqidiy qarashlari hamda yangi avlodning ruhiy iztiroblari realistik va psixologik jihatdan chuqur ifodalanadi. Shu jihatdan Osborn dramaturgiyasi nafaqat ingliz teatrining estetik rivojida, balki zamonaviy adabiyotda ijtimoiy muammolarni badiiy talqin qilish an'alarining shakllanishida ham muhim o'rin egallaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Osborne John. *Look Back in Anger*. London: Faber and Faber, 1957. – 126 p.
2. Osborne John. *The Entertainer*. London: Faber and Faber, 1957. – 96 p.
3. Allsop Kenneth. *The Angry Decade: A Survey of the Cultural Revolt of the 1950s*. London: Peter Owen Publishers, 1958. – 320 p.
4. Carter Ronald, McRae John. *The Routledge History of Literature in English*. London: Routledge, 2001. – 450 p.
5. Taylor John Russell. *Anger and After: A Guide to the New British Drama*. London: Methuen, 1962. – 276 p.

³ Carter R., McRae J. *The Routledge History of Literature in English*. London: Routledge. – 2001. p. 392.